UDK: 372.4:81.243

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQNI TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Qurbonova Sevara Suyunovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Pedagogika kafedrasi assistenti
E-mail: squrbonova670@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida nutqni tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishga oid zamonaviy manbalar, metodlar va faoliyat turlari tahlil qilinadi. Tinglab tushunish kompetensiyasining bosqichlari, unga ta’sir qiluvchi omillar va uni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar amaliy misollar asosida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tinglab tushunish, kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, muloqot, nutq, didaktik manba.

Annotation. This article analyzes modern resources, methods, and types of activities for the development of speech listening comprehension competence in primary school students during mother tongue lessons. The stages of listening comprehension, influencing factors, and methodological recommendations are substantiated through practical examples.

Keywords: listening comprehension, competence, primary education, communication, speech, didactic resource

Аннотация. В статье анализируются современные ресурсы, методы и виды деятельности по формированию компетенции понимания речи на слух у учащихся начальных классов на уроках родного языка. Этапы понимания на слух, влияющие факторы и методические рекомендации обоснованы на основе практических примеров.

Ключевые слова: аудирование, компетенция, начальное образование, коммуникация, речь, дидактический ресурс

Kirish

Zamonaviy ta’limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, ona tili fanida o‘quvchilarning og‘zaki nutqni eshitish va tushunish (ya’ni tinglab tushunish) orqali muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini shakllantirish davlat ta’lim standartlari asosida belgilangan [1]. Nutqni tinglab tushunish nafaqat lisoniy kompetensiyaning, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarning ham tarkibiy qismi hisoblanadi [2].

Davlat ta’lim standartida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: “o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati

ISSN 3030-3907

shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”.

Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida “o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o‘quvchida grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” ekanligi belgilangan.

Shunday ekan, nutqni anglash, uni tinglab to‘g‘ri tushunish juda muhim bo‘lib, insonning ijtimoiy hayotda, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida, odamlar bilan samarali muloqot qilishida nutqni tinglab tushunish ,uning ma’nosini anglab, harakat qilish dolzarb ekanini ko‘rishimiz mumkin. Quyida keltirilgan hikoya orqali matnni tinglab tushunish jarayonini tahlil qilsak.

Asosiy qism

Nutqni tinglash — bu kommunikativ jarayonda, eshitilgan ma'lumotni tushunish va unga to‘g‘ri javob berish jarayonidir. Nutqni tinglash, nafaqat so‘zlarni eshitish, balki ularni ma'no jihatidan tushunish, tahlil qilish va kerakli xulosalarni chiqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon o‘quvchilarning til va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Nutqiy muloqotda bo‘lish odam uchun zaruriy ehtiyoj sanaladi. Tinglash jarayonida so‘zlovchining ifoda etmish mulohazalarini qisman yoki to‘lato‘kis tushunib yetmaslik hollari bo‘lib turadi. Buning asosiy sababi tinglab tushunishni o‘rgatishga yetarli e’tibor berilmasligidadir. Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozli nutq (gapirish) cho‘ida quloq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi. Umuman «nutq» deganda gapirish, tinglab tushunish, o‘qib tushunish va yozuv tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

Tahliliy metod: ilmiy va metodik manbalar asosida nazariy yondashuvlar tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: an’anaviy va innovatsion yondashuvlar solishtirildi.

Amaliy kuzatuv: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish faoliyati real o‘quv jarayonida kuzatildi.

O‘quvchilarning tinglab tushunish darajasini aniqlashda quyidagi faoliyatlar sinovdan o‘tkazildi:

1. Audiomatn asosida savollarga javob berish.

ISSN 3030-3907

2. Tinglangan matn asosida voqelikni tasvirlash.

3. Fikr bildirish va hikoya mazmunini qisqacha bayon etish.

O‘quvchilarning nutqni tinglab tushunish darajasini rivojlantirish uchun bir nechta samarali manbalar va usullar mavjud. Bu usullar o‘quvchilarning tinglash, tushunish va muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Quyida bunday manbalar va metodlarni sanab o‘tamiz. Bunda avvalo, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirish uchun yangi so‘zlar va iboralar bilan ishlash, nutqni yaxshiroq tushunish uchun so‘z boyligining kengayishi zarur. Buning uchun o’quvchi berilgan matnni mustaqil o‘qiydi va o‘ziga notanish bo‘lgan so‘zlarni tagiga belgi qo‘yadi. Matnni o‘qituvchi yordamida qayta o‘qiydi va notanish so‘zlarning ma’nosi bilan tanishadi. O‘quvchi yangi so‘zlarni ma’nosi bilan tanishib, matnni qayta o‘rganib chiqadi.

Natijalar va muhokama.

Nutqni tinglab tushungan o‘quvchi, uni faqat tushunib qolmasdan, shu ma'lumot asosida javob berish va munosabat bildirishni ham bilishi kerak. Bu, ayniqsa, muloqotda juda muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqni to‘liq anglab javob qaytarish ko‘nikmasi shakllanmagan bo‘ladi. Nutqqa o‘z munosabatini bildirish, uni anglab yetishi uchun boshlang‘ish sinf o‘qituvchilari samarali mehnat qilishlari kerak.

Ushbu hikoya misolida nutqni tinglash jarayonida amalga oshiriladigan bir necha faoliyatlarni tahlil qilamiz:

Hikoyani o‘quvchilar, avvalo, o‘qituvchi yordamida tinglaydilar. Ya’ni, o‘qituvchi hikoyani o‘qib beradi yoki audiomatnni qo‘yib eshittiradi.

Nutqni tinglashning birinchi bosqichi tinglashdir. O‘quvchi nutqning tovushlarini eshitib, so‘zlarni farqlashni, tovushlarni bir-biridan ajratishni boshlaydi . O‘quvchi hikoyani o‘qiyotganda uning mazmuniga ko‘p ham e’tibor qilmaydi.Uning diqqati so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va bexato o‘qishga qaratiladi.Tinglashning ikkinchi bosqichi- tushunish bo‘lib, tushunish tinglagan nutqni anglash jarayonidir. Bu bosqichda o‘quvchi eshitgan so‘zlarni ma'no jihatidan tahlil qiladi, ularning kontekstini tushunadi. O‘quvchi nutqning maqsadini, fikrlar tizimini va asosiy g‘oyalarni aniqlaydi.Uchinchi bosqich- xulosa chiqarish bo‘lib, o‘quvchi eshitilgan hikoyadan o‘ziga kerakli ma'lumotni oladi va uning asosida xulosa chiqaradi. Bu jarayonda o‘quvchi nutqdan ma'lumotni ajratish, baholash va unga mos ravishda fikr yuritishni o‘rganadi. Nutqni tinglash jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatning to‘rtinchi bosqichida-samarali javob berish o‘rin olgan. Eshitilgan nutqdan o‘quvchi o‘ziga kerakli ma'lumotni oladi va uning asosida xulosa chiqaradi. Bu jarayonda o‘quvchi nutqdan ma'lumotni ajratish, baholash va unga mos ravishda fikr yuritishni o‘rganadi. Bunda

ISSN 3030-3907

hikoyaning mazmunini savollarga javob berish orqali o‘z munosabatini bildiradilar.

Quyidagi hikoya asosida bu bosqichlar amaliy tarzda tahlil qilindi:

"Chin do‘stlik" hikoyasi: Uchinchi do‘stning quvvatlovchi so‘zlari bolalarda ijobiy munosabat, ijtimoiy empatiya va faol tinglash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

O‘quvchilarning javoblari quyidagi ko‘nikmalarning shakllanishini ko‘rsatdi:

Semantik bog‘liqlikni aniqlash

Matn g‘oyasini tushunish

Empatik munosabat bildirish

Bu esa o‘quvchilarda *kritik tinglash*, *sezgir fikrlash* va *mazmunli javob berish* ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi [4][5].

3.1.Tinglab tushunishning psixolingvistik asoslari

Tinglab tushunish jarayoni psixolingvistik jihatdan murakkab ko‘p bosqichli faoliyat sanaladi. Bu faoliyat davomida eshituvchining diqqat, xotira, idrok, tafakkur va til ko‘nikmalari faol ishtirok etadi. Vygotskiy va Leontevlar fikricha, eshitilgan til signalini to‘g‘ri qabul qilish, uni kontekstda tahlil qilish, semantik model asosida tushunish va og‘zaki yoki aqliy javob shakllantirish – bu inson tafakkurining yuqori shakllarini talab qiladi [4].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu jarayon alohida e’tiborni talab qiladi. Chunki ularning fonetik idroki, semantik analiz qilish qobiliyati va til bilimlari endi shakllanish bosqichida bo‘ladi [5]. Shu bois tinglab tushunishga oid topshiriqlar nafaqat eshitish qobiliyatini, balki izchil mantiqiy fikrlashni ham shakllantirishi lozim.

3.2. Tinglab tushunishning bosqichlari

Tinglab tushunish jarayoni metodik jihatdan quyidagi to‘rt bosqichga bo‘linadi [6]:

Nutqni tinglab tushunish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- **Tinglash (eslatib olish bosqichi):** O‘quvchi tovush va so‘zlarni ajrata oladi.
- **Anglash (semantik tahlil):** Eshitilgan nutqning mazmunini idrok qiladi.
- **Xulosa chiqarish:** Tinglangan matndan mantiqiy natijalar chiqariladi.
- **Javob qaytarish:** Eshitilgan ma’lumotga asoslangan ravishda og‘zaki yoki yozma fikr bildiriladi [3].

Har bir bosqich uchun alohida metodik yondashuv zarur. Masalan, semantik tahlil bosqichi uchun savol-javob asosida matn mazmunini chuqur tahlil qilish metodikasi samarali hisoblanadi [7].

3.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos xususiyatlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqni anglashga nisbatan quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

ISSN 3030-3907

➢ Lug‘at boyligi yetarli emasligi;
➢ Diqqatning qisqa muddatli bo‘lishi;
➢ Eshitilgan matnni to‘liq tahlil qilishda qiynalish;
➢ Qisqa gaplarni eslab qolishga moyillik.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar:

✓ Oddiy, mazmunli matnlardan foydalanishlari
✓ Ko‘rgazmali vositalar bilan eshitish materialini bog‘lashlari
✓ Tanish so‘zlar va kontekst asosida matn tuzishlari kerak [8].

3.4. Interaktiv va zamonaviy metodlar

Tinglab tushunish jarayonida quyidagi innovatsion metodlar katta samara beradi:

✧ **Audiomatnlar asosida ishlash** (masalan, “Chin do‘stlik” hikoyasi)
✧ **Ovozli diktantlar**
✧ **QR-kodli audio topshiriqlar**
✧ **Podkastlar orqali nutq tahlili**
✧ **Eshitilgan hikoya asosida rolli o‘yinlar o‘tkazish**

Quyidagi amaliy vazifa bunga misol bo‘ladi:

🎧 *“Shum bola” hikoyasining bir qismini audiomatn tarzida eshittiring. Keyin quyidagi savollarni bering:*

– Asosiy qahramon kim?
– U qanday muammoga duch keldi?
– Siz bo‘lsangiz nima qilgan bo‘lardingiz?

Bunday topshiriqlar o‘quvchining nafaqat tinglab tushunishini, balki kreativ va tanqidiy fikrlashini ham rivojlantiradi [9].

3.5. Baholash mezonlari

O‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini baholashda quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

Bosqich	Ko‘nikma	Baholash shakli
Eshitish	Tovushni farqlash	O‘qituvchi savollariga javob
Tushunish	Mazmunni aniqlash	Test savollariga javob
Xulosa	Fikr yuritish	Og‘zaki javoblar
Javob	Muloqotga kirishish	Monolog/hikoya qilish

ISSN 3030-3907

Shuningdek, tinglab tushunish baholash mezonlari CEFR (Common European Framework of Reference) mezonlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ishlab chiqilishi lozim [10].

Xulosa

Nutqni tinglash, uni ma’nosini anglab tushunish qanchalik inson uchun muhim bo‘lsa, nutq ma’nosini to‘g‘ri anglab yetish, nutqqa o‘z munosabatini bildirib, unga munosib javob berish ham insonning kundalik ehtiyojlaridan biri sifatida juda muhim ekanlgini ko‘ramiz. Insonlar o‘rtasida kechadigan ko‘pgina ziddiyatlarni kelib chiqish sabablaridan biri ham ular gapirayotganlarida sherigini tinglashni, uning fikrlarini to‘g‘ri anglab yetmaganliklari bilan bog‘lashimiz mumkin. Bu jarayonni yoshlikdan, kichik maktab yoshidan boshlab o‘rgatib borilsa, suhbatdoshini eshitishni,fikrini tezroq anglab, munosib javob qaytarish uchun to‘g‘ri fikrni tanlash va javob berish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.Bu esa muloqot jarayonini ancha oson kechishini ta’minlaydi. Tinglab tushunish — bu o‘quvchilarning fikrlash, anglash, muloqotga kirishish va o‘z fikrini bayon etish salohiyatini shakllantiruvchi muhim kompetensiyadir. Boshlang‘ich sinfda bu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyati, og‘zaki ifoda va tahliliy fikrlash malakalari rivojlanadi. Zamonaviy ta’lim yondashuvlari bu jarayonni interaktiv materiallar, multimediya vositalari va topshiriqlarga asoslangan baholash orqali samarali tashkil etishga imkon beradi [6][7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. **Umumiy o‘rta ta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari. 2021.**

2. Abdulvohidov, T.A. *Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish prinsiplari*. Innova Academy, 2025. 127–129 b.

3. Abdullaeva, G. *Tinglab tushunish va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni*. Toshkent: Akademnashr. 2020.

4. Anderson, A., & Lynch, T. *Listening*. Oxford University Press.1988.

5. Rost, M. *Teaching and Researching Listening*. London: Routledge. 2011.

6. Vandergrift, L. *Recent Developments in Second and Foreign Language Listening Comprehension Research*. Language Teaching, 40(3), 2007.191–210.

7. Field, J. *Listening in the Language Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press. 2008.

8. Tarbiya. *7-sinf darsligi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. 2020.

9. Richards, J.C. *Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice*. Cambridge University Press.2008.

ISSN 3030-3907

10. Celce-Murcia, M. *Teaching English as a Second or Foreign Language.* Heinle & Heinle. 2001.

11. Qurbanova.S.S Sources for the Development of the Level of Understanding of Students by Listening to Speech. Innovation and INTEGRITY.Volume: 42, May-2025

ISSN 3030-3907